



## O'ZBEKISTONDA OILA TARBIYASIGA DOIR ASOSIY TARIXIY MANBALAR

**Akram Yo'ldoshevich O'tayev**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat  
pedagogika instituti o'qituvchisi

Tel: +998 (90) 515 92 02. akramotayev2020@gmail.com

**Usmonchayeva Shaxnjza**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat  
pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada O'zbekistonda oila tarbiyasiga doir asosiy tarixiy manbalar to'g'risida fikr yuritilgan va tavsiyalar taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, oila, tarbiya, manba, tarixiy, bilim, o'rganish, o'zlashtirish.

**Annotation:** The article contains thought about the main historical sources in Uzbekistan and recommendations.

Yangi O'zbekiston sharoitida oila tarbiyasi masalasiga yangicha yondoshish, uning milliy manbalari va tajribalarini ilmiy – amaliy jihatdan chuqur o'rganish vazifalari qo'yilgan[1]. Shu jihatdan O'zbekistonda oila tarbiyasiga doir asosiy tarixiy manbalarni fundamental tarzda o'rganish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki bu manbalarda oila tarbiyasining quyidagi asoslariga doir tajribaviy fikrlar yuritilgan:

- oila tarbiyasining ijtimoiy va iqtisodiy asoslari;
- oila tarbiyasining siyosiy – huquqiy omillari;
- oila tarbiyasining pedagogik va psixologik tayanchlari;
- oila tarbiyasining hayotiy va amaliy samaradorlik mexanizmlari.

Bu masalalar oila tarbiyasiga doir asosiy tarixiy manbalarni izchil o'rganib borishni taqoza etadi. Chunki taruxiy manbalarda jamiyat rivoji uchun oila tarbiyasi, oilada farzandning barkamol bo'lib ulg'ayishi, sog'lom ma'naviy muhitni tarkib toptirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur o'rinda e'tiboringizni asosiy tarixiy – yozma manbalarning sharhiga tortamiz.

O'zbekistonda oila tarbiyasining muhim manbalaridan biri "Avesto"dir[2]. Uch ming yillik bu manbada oila tarbiyasining quyidagi masalalari talqin qilingan:

- oila qurishning shartligi va oilaga diniy – dunyoviy munosabatda bo'lish;
- farzand tug'ilgach uni Ezgu niyat, Ezgu fikr va Ezgu faoliyat tamoyillari asosida tarbiyalash;
- farzandning tarbiyasi bilan maxsus shug'ullanish;
- farzandni 15 yoshgacha ijtimoiy, jismoniy va ruhiy jihatdan voyaga etkazish.

"Avesto"da bu masalalar misollar vositasida izohlab berilgan. Misol uchun, 15 yoshga qadar farzand maxsus tarbiyalanmasa uni yovuz (yomonlik) ruh egallab olishi hayotiy misollar bilan tushuntirilgan.

Qur'oni karim va hidisi shariflar oila tarbiyasi bo'yicha eng muhim manbalardan biridir[3;4]. Bu manbalarda tahlil etilgan oila tarbiyasining umumiy jihatlarini eslatib o'tamiz:

- nikoh (oila) qurmoqningfarz ekaligi;
- oilada er kishining vazifalari va majburiyatlari;
- oilada ayolning burchlari va huquqlari;

- farzandlik burchi;
- oila tarbiyasining islomiy asoslari;
- etim bolalarning xaq – huquqlari va tarbiyasi;
- qo'shni oilalarga munosabat asoslari va h.k.

Bu masalalar diniy, ma'rifiy va hayotiy jihatdan chuqur asoslab berilgan. Shu sababli Yurtimizda oila tarbiyasining islomiy asoslari VII asrdan XX asrning 20-yillariga qadar ustuvor darajada amalda bo'lib keldi. Shuningdek, bu davrda yaratilgan ma'naviy merosimizda oila tarbiyasi masalalari aynan Qur'on va hadislar g'oyalariga asosan yoritilganligini eslatib o'tish joiz.

Oila tarbiyasiga oid muhim manbalardan biri Yusuf Xos Hojibning (XI asr) "Qudatg'u bilig" asasridir [5]. Bu asarda oila tarbiyasining quyidagi masalalari yoritilgan:

- oila qurishning ixtiyoriligi, lekin oila qurish jamiyat nuqtai nazarida muhimligi;
- oilani iqtisodiy ta'minlash er – xotinning teng zimmasida ekanligi;
- farzand tug'ilgach, unga bilim, odob va kasb o'rgatishning shartligi;
- oila tarbiyasida qat'iyatl bo'lish.

Bu masalalarda Yusuf Xos Hojib qat'iyatlik tamoyiliga asoslanadi. Misol uchun, u "agar farzand bilim o'rganmasa, uni jazolash mumkin"ligini alohida ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy (XV asr) asarlari oila tarbiyasi uchun eng muhim tarixiy manbalardan hisoblanadi. Masalan, "Xamsa" asarida Farhod, Shirin, Majnun va layli obrazlari vositasida oila tarbiyasiga doir quyidagi masalalar tahlil qilib berilgan [6]:

- farzandni yoshlikdan tarbiyalash maxsus Ustoz tarbiyasiga bprish;
- ustoz shogirdlariga bilim berish va hunar o'rgatish;
- farzandlarning jamiyat oldidagi burchlari;
- farzandlarning ijtimoiy va dunyoviy faol bo'lislari.

Alisher Navoiy shu tariqa oila tarbiyasida Ustoz institutining ahamiyatini alohida asoslab beradi.

Oila tarbiyasiga doir eng muhim manbalardan yana biri jadid pedagogi Abdurauf Fitratning (XX asr) "Oila" risolasidir [7]. Bu asar tarbiyasiga oid birinchi ilmiy – amaliy tadqiqot bo'lib [8], unda quyidagi masalalar yoritib berilgan:

- oila qurishning ilmiy, ma'rifiy va dunyoviy asoslari;
- oilada erkak va ayolning huquqlari, vazifalari, burchlari hamda majburiyatlar;
- oila tarbiyasining jismoni, aqliy va axloqiy tarbiya asoslari;
- oilada qizlar tarbiyasi;
- oila xizmatchilari huquqlari.

E'ibor berilsa, Fitrat bundan yuz yil muqaddam oila tarbiyasining ilmiy asoslarini ishlab chiqqan.

Namuna sifatida olingan tarixiy asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oila tarbiyasining muhim manbalari mavjud. Shu jihatdan bu borada quyidagilar tavsiya etiladi:

- 1."O'zbekistonda oila tarbiyasi manbalari Dasturi"ni ishlab chiqish va u asosda tizimli tadqiqotchilikni yo'lga qo'yish;
- 2.Oila tarbiyasi manbalarini o'rganuvchi yosh mutaxassis kadrlar tayyorlash;
- 3."Oila tarbiyasi antologiyasi" turkumli nashrni yo'lga qo'yish.

Zero, oila ijtimoiy hayot va jamiyat rivojlanishining negizini tashkil qiladi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanib, ushbu manbalar negizida oila va jamiyat mustahkamligi ta'minlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 820-tonli "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

- 2.Avesto.-T.:”Fan”.2001.
- 3.Qur’oni Karim. Alouddin Mansurning o’zbekcha tarjimasi.-T.:”Cho’lpon”.1991.
- 4.Imom Buxoriy.al-Adab al-mufrad.-T.:”Mavoraunnahr”.1993
- 5.Yusuf Xos Hojib.Qutadg'u bilig.-T.:”Fan”.1971.
- 6.Alisher Navoiy.Xamsa.-T.:”Fan”.1960.
- 7.Abdurauf Fitrat.Oila.-T.:”Ma’naviyat”.2001.
- 8.Shoira Abdujalilova. Abdurauf Fitratning oila va bola tarbiyasiga oid qarashlari.-T.:”Yozuvchi”.2005.